

**XX ASR O‘ZBEK ROMANCHILIGIDA IJTIMOY MUAMMOLAR TALQINI  
(TOG‘AY MUROD ASARLARI MISOLIDA)**

**Zarnigor Eshimova**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası*

*o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek romanchiligida ijtimoiy muammolarning badiiy talqini Tog‘ay Murod asarlari misolida tahlil etiladi. Yozuvchining “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” va “Otamdan qolgan dalalar” asarlaridagi asosiy obrazlar – Jo‘raboy hamda Ota siymolari orqali insonning jamiyatdagi o‘rni, ma‘naviy iztiroblar, adolat izlash motivlari yoritilgan. Maqolada yozuvchining badiiy mahorati, xalqona tili va falsafiy qarashlari ilmiy jihatdan izohlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Tog‘ay Murod, o‘zbek romanchiligi, ijtimoiy muammolar, realizm, obraz tahlili, xalqona til, ma‘naviyat, adolat.*

XX asr o‘zbek adabiyoti milliy uyg‘onish, mustaqillikka intilish va inson taqdiriga oid ijtimoiy-falsafiy muammolarni keng yoritgan davrdir. Bu jarayonda o‘zbek romanchiligi xalq hayotining og‘riqli nuqtalarini, jamiyatdagi adolatsizlik va inson qadri toptalishi kabi masalalarni badiiy obrazlar orqali ifodalashda muhim o‘rin tutdi. Mazkur jarayonda Tog‘ay Murod ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o‘z asarlarida xalqning ruhiy olami, insoniy qadriyatlar, mehnat, vijdon va or-nomus masalalarini teran tahlil etgan. Uning asarlari o‘zbek romanchiligida realizmning yangi bosqichini boshlab bergan, zamon muammolarini teran psixologik tahlil asosida yoritgan namunalardandir.

Tog‘ay Murod (1948–2001) – mustaqillik davri adabiyotining eng yorqin vakillaridan biridir. Uning asarlari xalqona ruh, samimiyat, til boyligi va chuqur ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Yozuvchi qahramonlari oddiy insonlardir: dehqonlar, mehnatkashlar, o‘z or-nomusi, e‘tiqodi, vijdoni uchun kurashayotgan kishilar. Tog‘ay Murod badiiy tafakkurida inson taqdiri, millat ruhiyati va jamiyatdagi adolatsizlik muammosi doimo markaziy o‘rinda bo‘lgan.

Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani o‘zbek xalqining ruhiy holatini, jamiyatdagi adolatsizlik va ma‘naviy tanazzulni ochib beruvchi chuqur falsafiy asardir. Asarning bosh qahramoni Jo‘raboy — oddiy dehqon, mehnatkash inson obrazida gavdalanadi. Uning hayoti orqali yozuvchi xalqning sabr-toqati, fidoyiligi va bir vaqtning o‘zida jamiyatdagi beparvolikdan azob chekayotgan inson ruhiyatini aks ettiradi.

Jo‘raboy obrazi o‘zbek xalqining ramziga aylangan:

“Inson o‘lsa ham, ori o‘lmasin”- bu misralar or-nomusni hamma narsadan ustun qo‘yuvchi o‘zbeginni ifodalasa, ” Jo‘raboy har tongda yerga qarab duo o‘qirdi, chunki yer unga non,

nafas, hayot berardi ” - bu esa o‘zbek dehqonining mehnatsevarligi va yerga ehtiromining ramzi. U hayotda adolat izlaydi, lekin uni topolmaydi. Yozuvchi bu obraz orqali tizimdagi nosozliklarni, rahbarlarning ikkiyuzlamachiligini, jamiyatda inson qadri pastga tushganini ko‘rsatadi. Jo‘raboyni har bir so‘zi, ichki monologi xalq og‘rig‘ining ifodasidir: u yashaydi, kurashadi, ammo jamiyat uni eshitmaydi. Shu jihatdan, asarda insonning ma‘naviy iztiroblari bilan birga, jamiyatdagi adolat inqirozi ham tahlil etiladi.

“Otamdan qolgan dalalar” romanida yozuvchi millatning ildizi bo‘lgan dehqon hayoti, yerga mehr, sadoqat va insoniy qadriyatlarni tasvirlaydi. Asarda Ota obrazi-Dehqonqul, Jamoliddin ketmon markaziy o‘rinni egallaydi. U mehnatkash, pokiza qalbli, halol inson sifatida tasvirlanadi. Uning hayoti, orzu-umidlari, dalaga bo‘lgan muhabbati orqali yozuvchi xalqning yerga, tabiatga va mehnatga bo‘lgan hurmatini ifoda etadi.

“Dalamda musulmon oyoq bosar yer qolmadi. Dalamda dehqon oyoq bosar yer qolmadi. Bo‘ldi endi qaytib oyoq bosmayman.” fikrlarida Jaloliddin ketmonning diniga, millatiga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsak, Oqqoshsho otamizga bu yerlar seniki emas deganda, ”Oqqodsho bilibdi, Qurbon qoraqirg‘iz dalasiligini bilib qolibdi, -deya xayollanadi. -Birovning moli mol bo‘lmaydi deb shuni aytadilar-da”. Bunda Jamoliddin ketmon obrazida o‘zbek xalqining soddadilligi, ko‘nglida hech qanday g‘araz yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Bobomiz o‘zining yerini Oqqodsho oyoq bosgani uchun tark etib qirg‘iz yurtlariga borib qoladi. Aslida bu yerlar seniki emas, mening yerlarim demoqchi edi, otamiz esa birovning yeridan foydalanayotganimni bilib qoldi deb, o‘ksinib qo‘yadi.

Ota obrazi — xalq donishmandligining, sabrning, mehrning timsolidir. U o‘z hayotini dalaga, oilasiga bag‘ishlagan inson sifatida jamiyatdagi ko‘plab muammolarni ich-ichidan his qiladi. Uning farzandlariga nasihatlarini, hayotga qarashlari o‘zbek xalqining milliy ruhiyatini aks ettiradi. Birgina Aqrab qo‘rboshining qizillar bilan suhbatiga e‘tibor qaratsak :

“Chanishev! Meni mana shu yerda ot!

— Qaerda-qaerda?

Otamiz o‘ng oyog‘i bilan yer tepib-yer tepib aytadi:

— Mana! Mana shu yerda ot!

Qizillar bir-biriga qarab-qarab oladi. Qizillar kalla chayqab-kalla chayqab oladi.

— Chanishev! — deydi otamiz. — Men o‘zbekman, o‘zbek! O‘zbek qaerda tavallud topadi — ana o‘sha yerda umr kechiradi! Chanishev! Baliq jannatmakon sohil-da bo‘lsa-da, o‘lib qoladi. Balchiqdan-balchiq suv bo‘lsa-da, tashlab yuborsa bo‘ldi — tag‘in tiriladi-qoladi. Chanishev! O‘zbek-da ana shunday! O‘zbekka jannatmakon-da tatimaydi. O‘zbek jannatmakon-da-da o‘z el-yurtini qo‘msab-qo‘msab ado bo‘ladi. O‘zbek jannatmakon-da-yu do‘zaxmakon paxtazorini qo‘msab-qo‘msab qaytib keladi.”

Asarning aynan shu joyi inson qalbini titratadi, o‘limni -da o‘z yurtida qarshi olishni, qoni o‘zga yurt tuproqlariga qorishmaslikni xohlaydi. Sadoqat, Vatanga bo‘lgan muhabbat kabi insoniy tuyg‘ular, haqiqiy o‘zbek yigitlarining mardligini ko‘rsatgan bu mardona fikrlar asar

qiymatini yana-da oshiradi. U o'limdan qo'rqmaydi, balki haqiqat uchun jon beradi. Shu bilan u ma'nadan o'lmasga aylanadi.

Asarda yozuvchi ota-bola munosabati orqali avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar uzluksizligini, lekin zamonaviy jamiyatda bu rishtalar asta-sekin uzilayotganini ko'rsatadi.

“Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” asari esa inson ruhi, e'tiqodi, vijdoni o'lmasligi, adolatga ishonchi haqida yozilgan eng chuqur asarlardan biridir.

Tog'ay Murod tili xalqona, ammo falsafiy mazmunga boy. U sodda so'zlar orqali chuqur ma'no beradi, xalq maqollarini, hikmatli so'zlarni tabiiy tarzda asarga singdiradi. “Sabr qilgan odamning yuragida nur o'lmaydi”, “Haqiqatni aytgan odamdan qo'rqishadi, ammo haqiqat o'lmaydi”, “Halolning qo'li yuvilmasa ham, noni oppoq”, “Odam yer bilan do'st bo'lsa, yer uni boqadi”, “Yerni sevgan el - elini sevadi”, “Kishining nomusi - o'z yuzidir”, - kabi bir qancha folklorga oid misollarni topishimiz mumkin. Yozuvchining tasvir uslubi psixologik chuqurligi, ichki monologlardan foydalanish, ramziy ifodalar orqali farqlanadi. Birgina “Otamdan qolgan dalalar” asari asosida tahlil qilsak, bu yerdagi ramz - dalalardir. U - meros, vatan, xalq ruhi, hayot manbai ramzi. “Dalalar jim, lekin ular otamning ovozi saqlab qolgan”. Bu satrlar orqali yozuvchi xalqning o'tmishi, otalarning mehnati, millatning ildizi yer ramzida yashayotganini ko'rsatgan. “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi... odam o'lishni istaydi, lekin o'lolmaydi. Chunki hali yurakda qarz bor, hali adolat o'lmagan...” bu monolog Jo'raboyning kechinmasini, jamiyatdagi adolatsizliklardan charchagan, ammo umidini yo'qotmagan ruhini ko'rsatadi. U o'zicha sukutda qichqiradi - bu ichki faryod Tog'ay Murod uslubining asosidir. Uning qahramonlari ko'p hollarda o'z hayotidan norozi, biroq oriyatini saqlagan, ezgulik yo'lidan chekinmagan insonlardir. Bu jihatlar Tog'ay Murodning XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos maktab yarata olgan yozuvchiga aylantirdi.

Tog'ay Murod ijodi XX asr o'zbek romanchiligida ijtimoiy muammolarni badiiy tahlil qilishning yangi bosqichini boshlab berdi. U insonning ichki olamini, ruhiy iztiroblarini va jamiyatdagi adolatsizlikni teran ochib berdi. Yozuvchining qahramonlari orqali o'zbek xalqining ruhiyati, mehnatsevarligi, sabr-toqati, or-nomusi, halollik va ezgulik g'oyalari yuksak badiiy shaklda ifodalangan. Tog'ay Murod asarlari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy o'quvchini o'ylashga, fikrlashga va o'zligini anglashga undaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent: Sharq, 1991.
2. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1996.
3. Karimov H. O'zbek romanchiligi tarixi. – Toshkent, 2002.
4. Ro'zimov Sh. XX asr o'zbek adabiyotida ijtimoiy mavzular talqini. – Toshkent, 2010.
5. Yuldoshev M. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida shaxs va jamiyat muammosi. – Toshkent, 2015.